

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ASQAROVA MANZURA AVAZBEKOVNA**

**ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘QITISH JARAYONIDA  
XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING  
METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH (PISA va PIRLS  
MISOLIDA)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of science (DSc)**

**Asqarova Manzura Avazbekovna**

Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish..... 3

**Аскарова Манзура Авазбековна**

Совершенствование методических основ использования международных оценочных программ в процессе обучения родному языку и читательской грамотности..... 33

**Askarova Manzura Avazbekovna**

Improving the methodological foundations of the use of international assessment programs in the process of teaching native language and reading literacy ..... 65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 71

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ASQAROVA MANZURA AVAZBEKOVNA**

**ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘QITISH JARAYONIDA  
XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING  
METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH (PISA va PIRLS  
dasturlari misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Ped620 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://www.cspu.uz>) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Xodjaev Begzod Xudoyberdiyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor,

**Rasmiy opponentlar:**

**Matchonov Safo Murodovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Mavlonova Klaraxon Mahmudovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" 08 -soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99870) 712-27-55; (+99870) 712-45-41; faks: (+99870) 712-45-41; e-mail: [cspu\\_kengash@umail.uz](mailto:cspu_kengash@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (338 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99870) 712-27-55; (+99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "13" 08 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "13" 08 dagi "13" raqamli reyestr bayonnomasi).



**U.N.Xodjamkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., dotsent

**F.T.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**V.B.Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim muammosining dolzarbligi eng muhim masalalardan biri sanalib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim kontseptsiyasida ta'lim - taraqqiyotning asosiy xarakterlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Singapur, Rossiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda o'tkazilgan ta'lim sifatini baholashdagi xalqaro tadqiqotlar va erishilgan natijalar ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ta'lim oluvchilarning zamon talablariga javob beradigan bilim, ko'nikma va malakalarini munosib baholash tizimini takomillashtirish uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini o'tamoqda. Shuningdek, yangicha xalqaro monitoring tizimida ona tili va o'qish savodxonligi bo'yicha o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini xalqaro baholash dasturlariga muvofiq ravishda aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizimni takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda pedagogik tadqiqotlarning amalga oshirilishi asosida o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlash xalqaro baholash dasturlari asosida amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Xalqaro baholash dasturi topshiriqlari esa o'quvchilarning egallagan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olishi, fanlararo bilimlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlanishi, qaror qabul qilish, o'zlashtirgan ma'lumotlari asosida o'z fikrlarini asoslash, qarama-qarshilikni taqqoslash, muammolarni maqsadli verbalizatsiya qilish, faktlarni baholash kabi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu jihatdan o'quvchilarda o'qish va tushunish darajasini rivojlantiruvchi ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik va metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, o'quvchilar savodxonlik darajasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'limga oid me'yoriy huquqiy hujjatlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, kreativ, mantiqiy mushohada, madaniyatlararo muvafaqqiyatli muloqot qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash, ularda intellektual qobiliyatlarni namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish" yuzasidan ustivor vazifalar belgilangan.<sup>1</sup> Bu esa, rivojlangan mamlakatlar erishgan ijobiy natijalarga tayanib, ilg'or tajribalarni respublikamiz ta'lim tizimida ommalashtirish, o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini rivojlantirish, ularning amaliy ko'nikmalarini baholashga qaratilgan interfaol topshiriqlar tizimini hamda o'qish, ona tili savodxonligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF 5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF 5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF 6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, 2017-yil 1-sentyabrdagi PQ 3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**<sup>2</sup> Xalqaro baholash dasturlari asosida o'qitishni rivojlantirish masalalari bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, AICHI university of Education (Yaponiya), National Institute Of Technical Teachers Training And Research (Hindiston), Princeton university (AQSh), Singapur national universitety (Singapur); Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya) kabi ilmiy-tadqiqot markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bir qator, jumladan, o'quvchilarda o'qish savodxonligi asosida tanqidiy, mantiqiy, kreativ fikrlash darajasini oshirishning edukologik jihatlari

---

<sup>2</sup> Mazkur qismni yozishda quyidagi manbalardan foydalanildi: "Faculty of Education Student Exchange to Aichi University of Education, Japan", Yogyakarta State University 2016-10-17. Retrieved 2019-02-20. Japan; X.Kappali.,NITTTTR Extension Center, Hyderabad is conducting a Professional Development Programme on "Induction Training Programme" for faculty, Industry Professionals, Research Scholars from all disciplines through Contact mode from 20.05.2024. Indiya; E.Donahue. Princeton University Admissions. Future of Children Final Roll-out Event at Brookings.USA.February 8, 2021. Tan, J., Singapore methodology: learn less, learn more (2018). Educational reform in Singapore: From quantity to quality. Educational Research.7 (1), 5-15. Ministry of Education.(2008a). More support for school's "Teach less, learn more" initiatives, [Press Release]. Singapore; Bland J. Children's literature and learner empowerment: Children and teenagers in English language education, London: 2013.

aniqlashtirilgan (AICHI university of Education, Yaponiya); o'quvchilarning savodxonligini oshirish, yangi texnologiyalar, fan sohasi va shaxsni rivojlantirish, o'quvchilarni baholash tizimini isloh qilish, o'quv resurslarini rivojlantirish, loyihalarni baholash tizimi amalga oshirilgan (National Institute Of Technical Teachers Training And Research, Hindiston); o'quvchilarni keng sohalarda bilimlarni rivojlantirish va texnologiyalarni yaratish, ongga ta'sir qiluvchi haqiqatlarni manipulyatsiya qilish, o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatni rivojlantirishga asoslangan Princeton university (AQSh); maktab o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning STEAM-ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan (Singapur Milliy universiteti, Singapur); ona tiliga xos muhim tushuncha, til ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qish kompetentsiyalarni rivojlantirishda autodidaktik tizimi ishlab chiqilgan (Belfield pedagogical university, Germaniya); boshlang'ich maktablarda PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasida amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish tuzilmasi ishlab chiqilgan (National Advice on pedagogical technology, Angliya); maktab o'quv dasturlarida o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlari rivojlantirilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi, Rossiya).

Jahonda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda: jumladan, xalqaro baholash dasturi asosida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish; xalqaro baholash dasturi asosida nazariya va amaliyot o'rtasidagi metodik yondashuvlarning qayta aloqa, tizimlilik, sub'yektivlik, natijaviylik tamoyillarini amaliy tavsiyaga ega bo'lishini hisobga olish va takomillashtirish; xalqaro baholash dasturlarini uzluksiz ta'lim jarayonida qo'llashning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, o'quvchilarning kreativ salohiyatini uzluksiz rivojlantirib borish mexanizmlarini takomillashtirish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda o'quvchilarning savodxonligini oshirish, o'qishga o'rgatishning akmeologik, pedagogik va metodik jihatlari S.Matchon, K.Mavlonova, B.Xodjaye, A.Xamroyev, R.Niyozmetova, M.Mirqosimova, X.Boqiyeva, A.Umarov, B.G'anieva, A.Abdulazizov, Q.Yo'ldoshev, F.Aminova, T.Ziyadova, D.Muminova, D.Qosimova, S.Qambarova, Q.Husanboeva, M.Sobirova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari A.O.Yevdokimova, L.E.Jurova, G.S.Kovaleva, Ye.E.Kochurova, K.A.Krasnoyarskaya, M.I.Kuznetsova, O.A.Ridze, V.S.Avanesov, V.A.Bolotov, V.I.Zvonnikov, Ye.Yu.Kardanova, Yu.M.Neyman, M.B.Chelishkova va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'quvchilarni o'qish va matn ustida ishlash, ona tili savodxonligini oshirishning metodik jihatlari yoritib o'tganlar.

Xorijda ham olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, X.Xortana, P.Simsa, I.Djastin, J.Oakhill, K.Cain, N.K.Duke, E.Florit, M.Roch, M. Levorato, C.Elbro, G.Francey, M.Gernsbacher, K.Varner, M.Faust, P.Gough,

W.Hoover C. Peterson, K.Hall, J.Markham, C.Culattalarning tadqiqot ishlarida o'quvchilarni matn bilan ishlash va o'qishga o'rgatish, ona tili savodxonligini rivojlantirish muammolarini tatqiq etganlar.

Biroq, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, o'quvchilarni o'qish va matn ustida ishlashga o'rgatishning pedagogik-psixologik, metodik jihatlari maxsus tadqiq etilmagan. Shuningdek, o'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligini rivojlantirish, matn bo'yicha tuzilgan mantiqiy savollarga javob topish hamda badiiy matn tahliliga tanqidiy yondashish metodikasi ishlab chiqilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'qituvchilar tayyorlash:ta'lim-tarbiya muammolari va istiqbollari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik holatini o'rganish, tahlil qilish va pedagogik jihatlarni yoritib berish;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning didaktik modelini ishlab chiqish;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash darajalarini didaktik tashxislash;

o'quvchilarning matn mohiyatini tushunishi, idrok etish xususiyatlari va mezonlarini aniqlash;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik ta'minotini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish jarayonlari belgilanib, unda Namangan viloyatidagi, Namangan tumanidagi 23-sonli, Namangan shahridagi 57-sonli, Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi 1- va 3-sonli, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi 26- va 66-sonli, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi 15- va 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 974 nafar o'quvchilari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari** tadqiqot jarayonida nazariy (qiyosiy, tahliliy), diagnostik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik jihatlarini o'quvchilarning predmet yoki hodisani tarkibiy qismlarga, fikriy tasavvurda va moddiy modellashtirish asosida ajratishga asoslangan fikrlash jarayonining reproduktiv, produktiv, yuqori ijodiy darajalarini o'quv mashg'ulotlari mazmuniga doir yetarli dalillarni saralash, fikrlash, xulosalarni tavsiflashga o'rgatish asosida takomillashtirilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning didaktik modeli o'quvchilarning o'quv faoliyatida o'qish va matnni tushunish orqali axborotlardan xabardor bo'lish, ulardan foydalanish, muhim va zarur axborotlarni ajrata olish, eksteriorizatsiya va ijtimoiy-pedagogik interiorizatsiya tamoyillariga asoslangan o'quv topshiriqlariga yechimlar topish, amaliyotda qo'llash mutanosibligini tizimli taxlil qilish asosida takomillashtirilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash darajalarini didaktik tashxislashning metodik komponentlari bilimlarni tizimlashtirish, o'z ustida ishlash, mustaqil tayyorgarlik bloklari bilan o'zlashtirgan o'quv materialining ilmiylik, tushunarlilik, aniqlik, ishonchlilik, mukammallik, chuqurlik, tizimlilik tamoyillari asosida yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi adaptiv aloqadorligi reproduktivligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

tizimli yondashuv asosida o'quvchilarning o'qish va matnni tushunish orqali axborotlardan xabardor bo'lish ko'nikmalarini aniqlashning intellektual, motivatsion, innovatsion mezonlari ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash hamda uzatish uchun mo'ljallangan o'zini o'zi baholash, rivojlantirish kabi refleksiv ko'nikma va bilimlarni intensiv rivojlantiruvchi kognitiv yondashuvlar asosida aniqlashtirilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik ta'minoti ta'lim dasturlarining ichki birligini ta'minlash, shuningdek, turli dasturlarni bevosita yaxlit holda birlashtirish imkonini beradigan o'quv fanlarining integratsion mazmuni o'rtasidagi reproduktiv aloqadorlikni aniq fikrga asoslangan holda mantiqiy umumlashmalar hosil qilish uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalarining amaliy ahamiyati:**

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirishga doir mashqlar, testlar va topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning texnologik imkoniyatlari ishlab chiqilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning algoritmik bosqichlari belgilab berilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishga doir ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olib borilgan tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va foydalanilgan nazariy ma'lumotlar asosga egaligi, tahlillar, tajriba-sinov ishlari va samaradorlik natijalari matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xalqaro baholash dasturlarini ta'lim tizimida qo'llashga oid zamonaviy amaliyot ko'lamining kengaytirilganligi, xalqaro baholash dasturlari asosida ona tili va o'qish savodxonligini rivojlantirishning yangi xulosalar bilan boyitilganligi, PISA va PIRLS topshiriq va testlarini ishlab chiqish orqali samarali natijalarga erishilganligi, o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligi bo'yicha metodik jihatdan rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari, ko'rsatkichlari aniqlanganligi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashining namoyon bo'lishi, uning tavsifi va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, o'qish ko'nikmasini takomillashtirish asosida matnni tushunish metodikasi ishlab chiqilganligi, xalqaro baholash dasturlarini qo'llash shakl va metodlarining modifikatsiyalanganligi, tadqiqot natijalaridan o'qituvchilar uchun "Xalqaro baholash dasturi" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik jihatlari o'quvchilarning predmet yoki hodisani tarkibiy qismlarga, fikriy tasavvurda va moddiy modellashtirish asosida ajratishga asoslangan fikrlash jarayonining reproduktiv, produktiv, yuqori ijodiy darajalarini o'quv mashg'ulotlari mazmuniga doir yetarli dalillarni saralash, fikrlash, xulosalarni tavsiflashga o'rgatish asosida takomillashtirishga doir takliflardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Umumiy pedagogika" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug'i, 55157-raqamli guvohnoma) Natijada, ta'lim jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning didaktik modeli o'quvchilarning o'quv faoliyatida o'qish va matnni tushunish orqali axborotlardan xabardor bo'lish, ulardan foydalanish, muhim va zarur axborotlarni ajrata olish, eksteriorizatsiya va ijtimoiy-pedagogik interiorizatsiya tamoyillariga asoslangan o'quv topshiriqlariga yechimlar topish, amaliyotda qo'llash mutanosibligini tizimli taxlil qilish asosida

takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Pedagogik mahorat asoslari” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i, 391317-raqamli guvohnoma). Natijada, o‘qituvchilarda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish kompetentsiyasini rivojlantirishga erishilgan;

ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash darajalarini didaktik tashxislashning metodik komponentlari bilimlarni tizimlashtirish, o‘z ustida ishlash, mustaqil tayyorgarlik bloklari bilan o‘zlashtirgan o‘quv materialining ilmiylik, tushunarlilik, aniqlik, ishonchlilik, mukammallik, chuqurlik, tizimlilik tamoyillari asosida yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi adaptiv aloqadorligi reproduktivligini ta’minlashga doir takliflardan 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi 20170930223-raqamli “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmi” nomli monografiyaning “Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ta’lim muassasalarining imkoniyatlari va pedagogik yo‘nalishlari” nomli 3-bo‘limini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2023-yil 31-oktabrdagi 04/5446-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarda mediamatnlarni o‘qish va tushunish, ona tili savodxonligini oshishiga xizmat qilgan;

tizimli yondashuv asosida o‘quvchilarning o‘qish va matnni tushunish orqali axborotlardan xabardor bo‘lish ko‘nikmalarini aniqlashning intellektual, motivatsion, innovatsion mezonlari ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash hamda uzatish uchun mo‘ljallangan o‘zini o‘zi baholash, rivojlantirish kabi refleksiv ko‘nikma va bilimlarni intensiv rivojlantiruvchi kognitiv yondashuvlar asosida aniqlashtirishga doir takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2021-2022 yillar davomida bajarilgan A-OT-2021-461-sonli “Umumta’lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va qimmatli qog‘ozlar bozorini o‘rganish bo‘yicha multimedia texnologiyalariga asoslangan o‘quv kursi platformasini yaratish” mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 1-noyabrdagi 04/11-7229-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi, matnni tushunish, mantiqiy tafakkur qilish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishilgan.

ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik ta’minoti ta’lim dasturlarining ichki birligini ta’minlash, shuningdek, turli dasturlarni bevosita yaxlit holda birlashtirish imkonini beradigan o‘quv fanlarining integratsion mazmuni o‘rtasidagi reproduktiv aloqadorlikni aniq fikrga asoslangan holda mantiqiy umumlashmalar hosil qilish uyg‘unligini ta’minlash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Ijtimoiy pedagogika” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘i, 55158-raqamli guvohnoma). Natijada, ta’lim jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik ta’minoti boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shundan 3ta darslik, 1ta monografiya, 1ta uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida”gi Qarori bilan ta'limni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, monitoring qilish, boshqa davlatlar ta'lim tizimi va darajasi bilan solishtirish orqali ta'limdagi kamchiliklarni aniqlash va kelgusida ta'limni rivojlanishi uchun rejalar tuzish nazarda tutilgan. Xalqaro miqyosda kelishilgan doirada muntazam baholash orqali ta'lim tizimi faoliyati milliy monitoringi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotni yanada keng kontekstda yaratish uchun o'ylab topilgan. 1990-yillarga qadar Evropa davlatlari milliy testlardan foydalanganib, o'nta mamlakat va mintaqalar standartlashtirilgan baholashni joriy qildilar va 2000-yillarning boshidan shu usulni qo'lladilar. 2009-yilda Evropa ta'lim tizimida o'quvchilarning milliy baholash tizimi yo'q edi. Ta'lim siyosati sohasidagi ushbu xalqaro standartlashtirilgan baholarning ta'siri, yaratilish nuqtai nazaridan katta

ahamiyatga ega yangi bilim va o'zgarishlarni baholash siyosati, milliy ta'lim siyosatiga tashqi ta'siri yanada kengaydi. Xalqaro standartlashtirilgan baholash ma'lumotlari ta'lim tizimidagi yoki uning ichidagi sabab omillarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etdi.


Taxlillar shuni ko'rsatdiki, PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun asosan ikki maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi, o'qituvchilar foydalanadigan materiallarni tayyorlash bo'lib, bunda yangi o'quv materiallarini yaratish lozim. Ikkinchisi esa, xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasining ustuvor tamoyillarini o'zgartirish zarur. Buning uchun o'qituvchilarni tayyorlash, rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishi va ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlash kerak. Shu o'rinda bir savol tug'iladi PISAda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi? Masalan, Rossiya 2000-yildan beri xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib kelmoqda va PISA bo'yicha natijalar o'rtacha xalqaro darajadan past edi. Faqat 18 yil davomida ta'limga katta sarmoya kiritish orqali PISA tadqiqotidagi natijalar iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning o'rtacha ko'rsatkichlariga ega bo'ldi. Bu ko'proq fan natijalariga, ya'ni yosh avlodga mustahkam, chuqur va uzoq muddatli bilimlarni berishga e'tibor qaratganligi bilan izohlanadi. Bilimlarni rivojlantirish esa o'quvchilar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda egallangan bilimlarni qo'llash bilan baholanadi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar mamlakatimiz yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun mustahkamlanadi. Bu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga ega bo'lishi va bu ko'nikmalar rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dunyo ta'lim siyosatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini belgilovchi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot dunyoning turli davlatlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli matnlarni o'qish va tushunish darajasini baholash, taqqoslash hamda milliy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlaridagi tafovut va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotda 4-sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish darajalari baholanadi. Tadqiqotda ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi bo'lgan umumiy maktablar orasidan maxsus komp'yuter yordamida tasodifiy tanlanadi. Shu sababli PIRLS tadqiqoti qat'iy belgilangan yagona instruksiya asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon xalqaro koordinatsiya markazi nazoratida amalga oshirilib, tadqiqotning har bir bosqichi maktablarni tanlash, ta'lim vositalarini moslashtirish, matnlarni tarjima qilish, test va so'rovnomalarni o'tkazish, natijalarni tekshirish va qayta ishlash jarayonlari xalqaro ekspertlar tomonidan to'liq nazorat qilinadi.

PIRLS tadqiqoti jarayonida ikki turdagi o'qish baholanadi: adabiy o'qish tajribasini egallashga qaratilgan o'qish, ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish maqsadiga qaratilgan o'qish. Ta'lim siyosatini va o'quv dasturini samarali isloh qilish uchun mamlakat tomonidan erishilgan ball qanday kelib

chiqqanini tushunish lozim. O'quvchilarning adabiy o'qish jarayonini baholashda ona tili va o'qish savodxonligi negizida o'qib tushunish darajalarini baholash shkalasi to'rt qismga bo'lingan. Ushbu xalqaro mezon bo'yicha mamlakatlarning to'plagan o'rtacha ballari shkalaning markaziy nuqtasi bo'lgan 500 ball atrofida bo'ladi va kamdan kam hollarda 400 dan past yoki 575 balldan yuqori bo'ladi. Mamlakatlar to'plagan o'rtacha ballar ularning yutuqlarini boshqa mamlakatlar bilan solishtirish va yillar mobaynida (har 5 yilda) o'zgarishini taqqoslash imkonini beradi. Biroq, PIRLS tadqiqoti xulosasining asosiy qismi shunchaki reyting ballari emas, balki, ta'limni isloh qilishda muhim bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim siyosatini va o'quv dasturlarini isloh qilish uchun turli darajadagi ballar bilan bog'liq bo'lgan kompetentsiyalarni tushunish muhimdir (*qarang 1-rasm*).




**1-rasm. Xalqaro baholash dasturida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda 4 turdagi o'qish ko'nikmalari.**

Xalqaro baholash dasturida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda 4 turdagi o'qish ko'nikmalarining amaliy jihati shundan iboratki, miqdor va sifat ko'rsatgichlari asosida quyidagi baholash tizimidan foydalaniladi: javobini tanlashga oid topshiriqlar 1 ball, voqea va hodisalarning

ketma-ketligiga oid topshiriqlar va qarorlar 1 ball, javobi yoziladigan ochiq turdagi konstruktiv xarakterdagi topshiriqlar 1 ball, matnning strukturasi, tilga xos xususiyatlari, mazmunini baholash va tahlil qilishning qiyinchilik darajasiga ko'ra 1 ball dan 3 ballgacha baholanadi. Lekin, shuni e'tiborga olish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matnni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko'p o'quvchilar ba'zi holatlarda beparvo va kam o'qiydilar, ular uchun o'qish zerikarli bo'lib qoladi. Buning asosiy sababi: o'qishga bo'lgan qiziqishning umumiy pasayishi, kitoblardan tashqari ko'plab ma'lumot manbalarining mavjudligidir. Biroq, ushbu jarayonning asosiy sababi hali ham o'qishni, o'qitishning nomukammalligi, o'quvchilarning o'qish faolligini maqsadli shakllantirish tizimining yo'qligida.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning bilimni baholashda qo'llangan savol, test va topshiriqlar ularning o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganligiga qarab bilim, ko'nikmalar va malakalar rivojlantiriladi. Asosan qiyin bo'lgan axborot matnlarini yoki onlayn topshiriqlarni o'qiyotganda ro'yxatdagi tegishli ma'lumotlarni tanib olish uchun turli veb-sahifalar va matn qismlari bo'yicha murakkab ma'lumotlar haqida xulosalar chiqara olishi lozim. Fikrlarni qo'llab-quvvatlash uchun matndagi dalillardan foydalanish, matndagi fikrlarning umumiy ko'rinishini taqdim etish, taqqoslash va ma'lumotlarning bir nechta qismlarini sharhlash va birlashtira olishi, maqsadni tushuntirish uchun matnli, vizual va interaktiv elementlarni baholay olishi, yozuvchining nuqtayi nazarini aniqlashi, tasdiqlovchi dalillarni taqdim eta olishi lozim.

PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, uning natijalari dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida, mavjud talablar doirasida bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. PISA dasturining nazariy jihati shundaki, a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi. PISA tadqiqotlarining 15 yoshli o'quvchilar o'rtasida o'tkazilishining asosiy sababi iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo aksariyat davlatlarda 15 yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. Bilimlarni baholash va savodxonlikni aniqlashda qo'llaniladigan quyidagi kompetentsiyalar shakllanishi lozim (*qarang 2-rasm*).



**2-rasm. O'quvchilarda xalqaro baholash dasturi asosida kompetensiyalarning shakllanish yo'nalishlari.**

Demak, ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilishda undagi tanlangan matnlar o'quvchilarda to'g'ri o'qish me'yorlarini shakllantiradi, ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini jumladan o'qigan materialini qaysi darajada tushunganligini bilish imkoniyatini beradi. Faqat tanlangan matnlar o'quvchining yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlash tavsiya etiladi. Bu orqali ta'limda noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish darsning samaradorligini oshirib, o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiriladi:

- o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatadi;
- bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi;
- darsning samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarning ona tili xususiyatlarini kengroq bilish darajasini kengaytiradi;
- tafakkurni rivojlantiradi;
- o'quvchilarning matnni tushunish ko'nikmasini shakllantiradi;
- xotirani kuchaytiradi;
- matn bo'yicha axborotlarni tahlil qilishga o'rgatadi;
- o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatadi.

Natijada, o'quvchilarda ona tili savodxonligini oshirish va o'qish orqali kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi. Ya'ni, o'quvchilarning muloqotga kirishish jarayoni rivojlanib, nutq madaniyati takomillashadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu o'rinda kontekstlar ham aloxida ahamiyatga ega. Kontekstlar - PISA topshiriqlarining asosi sanaladi. Kontekst hayotiy muammoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlardir. O'z navbatida, kontekstlar shaxsiy, mahalliy va milliy (global) darajalarga bo'linadi.

PISA topshiriqlarini bajarish uchun talab etiladigan intellektual va fikrlash qobiliyatiga ko'ra ular uchta kognitiv darajaga ajratiladi:

1. Yuqori daraja - murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish;
2. O'rta daraja - hodisalarni tavsiflash;
3. Quyi daraja - bir bosqichli amallar.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib shuni aytish mumkinki, mamlakatlarning rivojlanishiga zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi hamda mamlakatni xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi orqali iqtisodiy jihatdan muhim natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Ko'plab mamlakatlar PIRLS natijalari asosida kelgusi davriylikkacha (5 yil) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darajasini orttirish maqsadida bir qator o'zgarishlarni amalga oshirib kelishmoqda. Bunday o'zgarishlar ko'pincha o'quvchilarni baholash mezonining ma'lum bir qismiga mos keluvchi tushunish darajalarini keyingi bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, past natijalarga erishgan o'quvchilarning o'qish yutuqlarini yaxshilashga qaratilgan yondashuv past va o'rta ko'rsatkichlarda o'z samarasini ma'lum darajada ko'rsatsa, yuqori ko'rsatkichlarda esa u qadar sezilmaydi. Shunday ekan, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturlari yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida, chuqur tahliliy va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan holda keng qamrovda ishlab chiqilgan rejalar asosida amalga oshirilmog'i lozim.

Dissertatsiyaning **“Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik shart sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarining integral komponenti, xalqaro baholash dasturi doirasida ta'lim sifatini baholashning shakllari, ta'limning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq o'quv jarayonini tashkil etish, kontseptual ma'lumotni olish darajasi va qobiliyatini tekshirish, matndan olingan ma'lumotlarni sharhlash va umumlashtirish kabi jixatlari yoritib o'tilgan. Ta'limda o'zlashtirish kabi ustuvor metaobyektiv natijalar o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, monitoring va baholash faoliyatini amalga oshirishning kontseptual asoslari, o'quvchining individual taraqqiyotini baholashga qaratilishi dolzarblik kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barcha aqliy jarayonlar faol rivojlanadi. Shu sababli, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash topshiriqlari matndagi hayotiy vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilish, o'quvchining shaxsiy faolligini oshirish, maqbul natijaga erishish, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish, mustaqillik va tanlash erkinligini yaratish, o'z-o'zini tahlil qilish jarayonlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xalqaro baholash dasturlarida

berilgan test va topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish, mustaqil fikrlash, nutq o'stirish, personajlarning ichki kechinmalari, maqsadlar va natijalari singari elementlarning izchil doirasiga joylashtirish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, matn bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va xulosa qilishga maqsadli yo'naltirish lozim. Bu esa, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'qish va matnni tushunish darajalarini rivojlantirish uchun metodik jihatdan samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida o'quvchilar o'qish qobiliyatining holati talab qilinadigan darajadan sezilarli orqada qolmoqda. Bu esa, akademik ko'rsatkichlarga jiddiy ta'sir qiladi. Ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilarning ijobiy natijaga erisha olmasligining asosiy sababi boshlang'ich sinfda yaxshi o'qimaganliklari va o'qish qobiliyatining pastligidir. O'qishdagi qiyinchiliklar tufayli o'quvchilar o'qishga nisbatan doimiy sust munosabatda bo'lishadi, bu esa shaxsning umumiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bunday vaziyatda o'qish uchun alohida e'tibor va nazorat zarur. O'quvchilarda o'qish ko'nikmasi shakllanadi, lekin hammasida ham o'qib, tushuna olish bir xilda takomillashmaydi. O'quvchilarni samarali o'qish qoidalari bilan ta'minlash muammosi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bu muammoni boshlang'ich sinfdan boshlab hal qilish zarur. Har bir jarayonga sarflanadigan vaqt o'quvchining o'rganish ritmiga muvofiq bir yilga uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Biz o'qishning maqsad va vazifalari haqidagi fikrlarni taqqosladik, o'qish ta'riflarida umumlashtirilgan PIRLS va PISA testlaridan olingan javoblarning samarali, funktsional tomoni ona tili savodxonligi darslarida matnni tushunish va taxlil qila olish qobiliyati hamda undan o'z muammolarini hal qilish uchun foydalanishga o'rgatdik.

Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida PISA testlari o'quvchilarning turli xil o'qish qobiliyatlarini mustaqil o'lchash uchun uchta asosiy shakli mavjud:

- 1) matndan ma'lumotni topish va xulosa chiqarib olish qobiliyati;
- 2) fanlarni integratsiya qilish va xabarlarini talqin qilish qobiliyati;
- 3) matnda aks ettirilgan fikrlarni o'z nuqtai nazar bilan baholash qobiliyati.

Demak, ushbu shakllardan ko'rinib turibdiki har bir diagnostik savol va sinov o'quvchilarning o'qish mahoratini ko'rsatkichi sifatida belgilanadi. PISA testida o'quvchilarning o'qish qobiliyatlaridan tashqari, yosh kitobxonlar uchun yana bir jihatini ko'rish mumkin, ya'ni matndan olingan ma'lumotlar asosida bilimlarni shakllantirish va to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatiladi. Bu yoshga qarab belgilanadigan ikkita test uchun o'qish faoliyati tarkibini tushunish 9-10 yoshli o'quvchilar va 15 yoshli o'quvchilarni o'qish xususiyatlari bilan farqlanadi. O'quvchilar uchun matnning so'zma so'z ma'nolarni minimal qayta ishlash, albatta bu murakkab jarayondir. 15 yoshli o'quvchilar uchun o'qish savodxonligi bu - yozma tushunish va undan foydalanish qobiliyati jamiyat talab

qiladigan maqsadlar uchun har xil shakllarda nutq yoki shaxs uchun turli matnlar asosida uning zaruratini anglashga o'rgatiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning matnni tushunish va foydalanish qobiliyatini, ularning bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayot tushunchasini anglashga o'rgatiladi. O'qish ustida ishlashning umumiy muvaffaqiyati PIRLS natijalari bilan taqqoslandi. Bunda o'zlashtirmaslikning og'ir nuqtalari mavjud bo'lib, ular boshlang'ich maktabda surunkali o'zlashtirmaslikka aylanadi va murakkab jarayonga olib keladi. Dunyo miqyosida 2006-yilda o'tkazilgan PIRLS natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy yuqori natijalar bilan ishlash, to'rtinchi sinf o'quvchilari tomonidan badiiy matnlarni tushunishdan ko'ra, axborot matnlari ular uchun yanada jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu bilan bir vaqtda, axborot matnlarini tushunishda kamchiliklar topildi. Matndan ma'lumot olish uchun asosiy o'qish - aniq ma'lumot va unga asoslanib eng oddiy xulosalar chiqarish lozimligi aniqlandi. Ushbu natija o'qishni o'rgatish amaliyoti bilan izohlanib, bu darsliklarning tahlilida namoyon bo'ldi.

Bugungi boshlang'ich maktablarda ona tili va o'qish savodxonligi bo'yicha qo'llanmalar asosiy manba bo'lgan axborot matnlarini rivojlantirish va tekshirishga qaratilgan emas, balki, o'qish ko'nikmalarini, mavjud faktlar asosida xulosalarni shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ona tilida matndan aniq berilgan ma'lumotni qidirish, reproduksiyaga qisqartiriladi va kerakli ma'lumotlar iloji boricha soddalashtirilgan shaklda beriladi. Agar boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar ba'zi qiyinchiliklarga duch kelsa matnda kerakli ma'lumotlarni topish bilan eng soddaga topilgan ma'lumotlarga asoslangan xulosalarga kelishi mumkin. Boshlang'ich ta'limda tegishli muammolar 2 ta gipoteza talab qiladi, ya'ni, 1) aniq doirada eksperimental o'rganish; 2) o'rganilgan ma'lumotlarni ijtimoiy hayotga bog'lash. Bundan matnni aniq doirada izohlay olish qobiliyatiga tayyorlik ya'ni o'zini o'zi o'rganish, natijalari to'g'risida faol "fikr mulohazalar"ni taqdim etishdan iborat bo'ladi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida esa o'quvchining ijodiy, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarga tasvirli matnlar berish maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchilar rasmni tasvirlaganidan so'ng o'qituvchi sarlavha va rasm asosida matnda qanday voqealar sodir bo'lishi mumkinligini taxmin qilishni so'raydi. Matnlar o'quvchilarning darajasiga, tushunish qobiliyatiga qarab turli xil usulda: individual, navbatma navbat, juftlikda yoki kichik guruhlarda o'qitish mumkin. Matn yuzasidan savollarga javobni yozdirish maqsadga muvofiq emas. Buning o'rniga xulosaviy yoki matnga bog'liq qo'shimcha savollardan foydalanish hamda muhokamaga ko'p o'quvchilarni jalb qilish kerak. Bu ruknda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashi, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi, kommunikativlik, ona tilida so'z boyligini oshishi uchun muhimdir. Shu so'zlarni bilasizmi?" ruknida yangi so'zlarning izohi yoki shu so'zlar ishtirok etgan gaplarni yozdirish maqsadga muvofiq emas. Bunda dastlab o'quvchi so'zlarning izohini

o‘z hayot tajribalariga tayangan holda aytadi. O‘qituvchi so‘zlarning ma’nosini umumlashtirib bergandan keyin, o‘quvchilardan og‘zaki tarzda shu so‘zlar ishtirok etgan so‘z birikmasi yoki gaplar tuzishni so‘raydi. Bundan maqsad: o‘quvchilarning so‘z ma’nosini qay darajada tushunganligini va uni amalda qo‘llay olishini tekshirib ko‘rishdir. O‘quvchilarga yuqoridagi kabi yozish topshiriqlarini berish vaqt taqsimotiga ta’sir qiladi va boshqa ruknlarni bajarish uchun vaqt qolmasligiga sabab bo‘ladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi o‘qitish jarayonida darsning kirish qismidagi matnni qayta o‘qish juda muhim. Bu matnni yana ham yaxshi tushunishga, matndagi voqealar haqida kengroq tasavvur hosil qilishga imkon beradi, o‘quvchilarni o‘qib tushunish uchun berilgan topshiriqqa (“Mana, endi aytingchi...”) rukni tayyorlanadi. O‘quvchilarda bir xil (takroriy) javoblar kuzatilganda, o‘qituvchi o‘z mahoratidan kelib chiqib savolning turli jixatlariga qarash va tanqidiy yondashish uchun yo‘nalish berishi kerak. Bunda o‘qituvchi qo‘shimcha savollardan foydalanadi yoki o‘zi bir, ikkita namunaviy javob taqdim etadi.

PIRLS dasturida samaradorlikka va kompetentsiyalarni real sharoitlarda qo‘llashga e’tibor qaratilishi uni maktabdagi o‘quv dasturlari yutuqlarini yanada yaqinroq o‘lchashga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ushbu dasturda ta’lim “hosildorligini” o‘lchash tizimlari yoki o‘quvchilar 15 yoshga to‘lgunga qadar ushbu fanlar bo‘yicha qanday ko‘nikma va malakalarni egallaganliklari, real sharoitlarda qo‘llashlari mumkinligini ko‘rsatadi. Savodxonlik kontseptsiyasida jarayonlarni o‘zlashtirish, tushunchalarni anglash, turli vaziyatlarda bilim va funksiyalarni qo‘llashga asosiy e’tibor qaratiladi. Savodxonlikka e’tibor qaratgan holda, PISA dasturida nafaqat maktab o‘quv dasturlaridan, balki, maktabdan tashqari amaliyotda ham sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayotiy vaziyatlardan ham foydalanadi.

Dissertatsiyaning **“Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning tashkiliy texnologik tizimi”** deb nomlangan uchinchi bobida produktiv o‘qish o‘quvchilarida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish vositalari, xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning tashkiliy mexanizmlari hamda texnologiyalari, dasturga muvofiq o‘quvchilarning ona tilida matnda ishlatiladigan ko‘p ma’noli so‘zlarni tushunishi, majoziy ma’noda ishlatiladigan so‘zlar, majoziy iboralar, frazeologiya, ketma-ketlikni tushunishi, matnning semantik qismlari, matnning janr xususiyatlari tekshirilishi masalalari yoritib o‘tilgan.

Boshlang‘ich sinf ta’lim standartiga muvofiq o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligini oshirish, o‘qish va matnni tushunish texnikasiga ega bo‘lishi, kitobga bo‘lgan ma’naviy ehtiyojni shakllantirish vazifasi qo‘yiladi. Ta’lim standartlari 5 ta bo‘lim: “tinglab tushunish”, “og‘zaki nutq”, “o‘qish”, “yozma nutq” va “lingvistik kompetentsiya”ni o‘z ichiga oladi. Masalan, darslikda matn uchun berilgan rasmdan asosiy maqsad hikoya mazmuni oldindan taxmin qilish topshirg‘i orqali o‘quvchining tanqidiy fikrlash va tahlil qilish

ko'nikmalarini rivojlantirishdir. O'qib tushunishni rivojlantirish quyidagi bosqichni o'z ichiga oladi (*qarang 3-rasm*).



**3-rasm. O'qib tushunishni rivojlantirish bosqichlari.**

Standart - muhim hujjatdir. Chunki ular sinflar kesimida talablarni aniq ko'rsatib beradi. O'quvchilarni PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda standartga muvofiq quyidagi metodik jihatlariga asosiy e'tiborni qaratish lozim:

1. Aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni olish darajasini tekshirish, ya'ni, o'quvchi matnda qanday muammo muhokama qilinayotganligini tushunish darajasi;

2. Ona tili xususiyatlaridan kelib chiqib matndagi ma'lumotlarning yashirin shaklda aniqlash darajasini tekshirish, aniq va yashirin ma'lumotlarga asoslangan xulosalarni shakllantirish qobiliyatini tekshirish, o'quvchining matn mazmunini tushunish qobiliyati tekshirish;

3. Matn elementlarini tahlil qilishning darajasini tekshirish.

PIRLS dasturiga muvofiq quyidagilar inobatga olinishi lozim:

1. Matn rejasini tuzish. Agar o'quvchilarning ona tilida o'qish va matnni tushunish darajasi susayib borayotgan bo'lsa, o'qituvchi shaxsiy rejani o'ylab chiqishi lozim. Misol uchun dars mashg'ulotlari tugagach, tanaffus e'lon qilish, so'ng musiqa yoki sayr qilish. Shunda o'quvchilarning diqqati bir joyga jamlanadi;

2. O'quvchilarning matn mazmunini o'zlashtirishda muntazam shug'ullanish lozim. Har kuni o'qishdan so'ng 20 daqiqa matn ustida ishlamasa, matnni tushunish darajasi pasayib boradi;

3. So'z birikmalari ustida ishlash. O'quvchilarga alohida so'zlarni o'rgatish bilan birga bir biriga qo'shilgan so'zlarni tahlil qilishga o'rgatish;

4. Darslikda berilgan matnni muntazam tahlil qilish hamda boshqa fanlarga bog'liq jihatlarini o'rgatish;

5. O'quvchilarning o'qish va matnni tushunishda nazariya bilan cheklanib qolmaslikka o'rgatish. Har qanday fanni faqat nazariy tomondan, amaliyotdan ajralgan holda o'rganish mumkin emas. Nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish;

6. Muomalada keng qo'llaniladigan so'zlar, ibora va hikmatli so'zlarni amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilishga o'rgatish;

7. Matnni tushunishda xatolarni ustida ishlashga o'rgatish;

8. Matndagi obrazlarning ijobiy va salbiy xususiyatlarini hayotiy misollar orqali tushuntirishga harakat qilish;

9. Matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini o'z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etish;

10. Matn yuzasidan axborotlarni umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o'rgatish lozim.

PISA dasturiga muvofiq o'qish va matnni tushunishda real muammoni hal etishga qaratilgan topshiriqlarni ko'lamini kengaytirish lozim. Muammo kontekstida esa, turli ko'rinishlarda berilgan ma'lumotlarni topshiriqlar va matnlar bilan ishlashga o'rgatiladi. Statistik ma'lumotlar asosida hulosa chiqarishga o'rgatish, muammolarni yoritib o'tilishi va fanlarni integratsiya qilishga o'rgatiladi.

PISA topshiriqlari ilmiy bilimlardan shaxsiy, mahalliy, milliy va global muammolarni hal qilishda foydalanish qobiliyatini ochib beradi. Shuningdek, zamonaviy, tarixiy, fan va texnologiya masalalarini tushunishni, atrofdagi dunyoni, ilmiy bilimlarning asosini tashkil etuvchi asosiy faktlar, g'oyalar va nazariyalarni tushunish, tabiat va texnologiyalar to'g'risida bilim (tarkibni bilish), bilim olish usullarini bilish (protseduralarni bilish), ushbu protseduralarning asosligini tushunish va ulardan foydalanish (uslubiy bilimlar), fan va texnologiyalarga qiziqish, savollarni ilmiy o'rganish qiymatini tushunish, atrof muhit muammolari to'g'risida xabardorlik va ularni hal qilishning muhimligini anglash bilan tavsiflanadigan fanga bo'lgan munosabatni ifodalashga o'rgatadi. Hodisalarni ilmiy tushuntirish, ma'lumotlarni sharhlash va xulosalar chiqarish uchun ilmiy dalillardan foydalanish kabilarni o'z ichiga oladi.


Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq, o'quvchilarning ona tili va oqish savodxonligini oshirish bilan birga badiiy va axborot matnlarini o'qish qobiliyatlari quyidagicha baholanadi:

- aniq shaklda berilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- axborotni talqin qilish va umumlashtirish;
- o'quvchilarning adabiy tajribasini olish uchun o'qish;
- ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish uchun o'qish.
- matnning mazmuni, ona tili xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish, baholash.

Ona tili xususiyatlaridan kelib chiqib, badiiy va axborot matnlarini o'qishni o'rganish nafaqat kognitiv rivojlanish, ta'lim va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, balki, o'quvchilarning muloqot qilish, ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, so'zlar mazmunini izohlay olish darajasini kengaytirishga yordam beruvchi produktiv usullarga ham yordam beradi. Produktiv usullar - o'quv materialining mazmunini, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflash, tafakkur qilishda yordam beradi. Produktiv usulda o'quvchilar ilgari yoki yaqinda egallagan bilimlarini qo'llaydi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda matnni qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qilish, uni aniqlab ko'rsatish, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni izohlash kabilarga ko'maklashadi. Bularning barchasi o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida topshiriqlarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

O'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligini oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri matnni taxmin qilish va antisipatsiyani o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ularning qiyinchilik darajasi oshadi: masalan, kontekst - so'z tarkibi, assotsiatsiya, o'xshashlik bo'yicha taxmin qilish, antisipatsiya esa, matnning boshida, sarlavhasida, voqealar tugashini, paragraf tuzilishini va butun matnni oldindan bilishdir.

Yuqorida berilgan fikrlarning maqsadi turli semantik taxmin, mazmunli antisipatsiya, idrok, taqqoslash, til xususiyatlaridan matn asosida kelib chiqib bilimlarni mustahkamlashdir. O'qilgan matnlarga doimiy murojaat qilish, turli xil vazifalarni bajarishda uni qayta ko'rib, o'qish qobiliyatini yaxshilaydi va rivojlantiradi hamda materialni mazmunini anglashga yordam beradi. Matn tarkibini identifikatsiyalashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu nafaqat o'quv jarayonini, balki mashqlarni bilvosita nazorat qilish imkonini beradi. Yuqoridagi berilgan fikrlardan kelib chiqib ta'lim jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish modelini ishlab chiqdik (*qarang 4-rasm*).



**4-rasm. Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish modeli.**

Dissertatsiyaning “**Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish samaradorligi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida o‘quvchilarda ona tili savodxonligi, o‘qish va matnni tushunish darajalarini baholash metodikasi va tajriba sinov ishlari natijalari yoritib berilgan.

Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan mazmun, metodika, pedagogik shart sharoitlarning samaradorlik darajasini aniqlash, tajriba sinov ishlarining asosiy yo‘nalishini belgilab berdi. Shunga muvofiq, tajriba sinov ishlarining ikkinchi bosqichida (birinchi bosqichda mavjud holat o‘rganilgan) o‘qituvchilar uchun tayyorlangan topshiriqlar, metodik ko‘rsatmalar, tavsiyalar o‘quvchilar uchun badiiy asarlardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borish tavsiya etildi. Xalqaro baholash dasturi asosida ona tili va o‘qish savodxonligini aniqlash mezonlari quyidagi mezonlar asosida aniqlandi:

**Xalqaro baholash dasturi asosida ona tili va o‘qish savodxonligini aniqlash mezonlari**

**1-jadval**

<b>Mezonlar</b>	<b>Xalqaro baholash dasturi asosida ona tili va o‘qish savodxonligini aniqlash bosqichlari</b>
Javob qabul qilinadi (1 ball )	Javobda hikoyada berilgan voqealarning ketma ketligi berilgan
Javob mazmuni	Javobda izohlar raqamlangan holatda beriladi. Har bir javob matn ketma-ketligiga mos bo‘lsa, o‘quvchining matnda ishlatiladigan ko‘p ma’noli so‘zlarni tushunishi, majoziy ma’noda ishlatiladigan so‘zlar, iboralar, frazeologik burilishlar, ketma-ketlikni tushunishi, matnning semantik qismlari, matnning janr xususiyatlari tekshiriladi, to‘g‘ri javob sifatida qabul qilinadi.
Javob qabul qilinadi (1 ball )	Javobda aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni olish darajasini tekshirish
Javob mazmuni	o‘quvchi matnda qanday holat va jarayon muhokama qilinayotganini qay darajada tushunish darajasi tekshiriladi, to‘g‘ri javob sifatida qabul qilinadi.
Javob qabul qilinadi (1 ball )	Matndagi ma’lumotlarning yashirin shaklda aniqlash darajasini tekshirish
Javob mazmuni	Matndagi aniq va yashirin ma’lumotlarga asoslangan xulosalarni shakllantirish qobiliyatini tekshirish, o‘quvchining matn mazmunini tushunish qobiliyati tekshiriladi, to‘g‘ri javob sifatida qabul qilinadi.

Javob qabul qilinadi (1 ball )	Matn elementlarini tahlil qilishning darajasini tekshirish
Javob mazmuni	Matn elementlarini tahlil qilishga doir nazariy bilimlarini aniqlashtirish, amaliy ko'nikma va mustaqil fikrlash salohiyatlari aniqlashtiriladi, to'g'ri javob sifatida qabul qilinadi.
Javob qabul qilinadi (1 ball )	Kontseptual ma'lumotni olish darajasini va qobiliyatini tekshirish
Javob mazmuni	Matndan olingan ma'lumotlarni sharhlash va umumlashtirish, matnning umumiy ma'nosi va asosiy g'oyasi tushunish qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. To'g'ri javob sifatida qabul qilinadi.

Sinov ishlariga tajriba maydonlari sifatida qabul qilingan jami 974 nafar respondent o'quvchi jalb etildi. Jami respondent o'quvchilarning tajriba sinov maydoni bo'lgan viloyatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlandi ( 1-jadvalga qarang).

#### 1-jadval

#### **Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi**

Tajriba maydonlari	Umumiy respondentlar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Namangan viloyati maktablari	254	128	126
Andijon viloyati maktablari	244	123	121
Fargona viloyati maktablari	242	122	120
Qashqadayo viloyati maktablari	234	118	116
Jami	974	491	483

Tajriba va nazorat guruhi respondentlarining statistik ko'rsatkichlarini hisoblash va ularning statistik tahlilini o'tkazishda matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish samaradorligini tekshirib ko'rish uchun tajriba guruhlarida qo'shimcha ravishda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Nazorat guruhlarida esa, an'anaviy turdagi o'quv materiallarini o'qitish bo'yicha ish olib borildi.

Demak, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish asosida mavzuni tushuntirish, o'zlashtirish, bilimlarni nazorat qilishning haqqoniyligini oshirilishiga erishiladi.

Tajriba sinovda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning samaradorligini aniqlash uchun olingan natijalar sifat va miqdor bo'yicha tahlil qilindi.

Tajriba sinov ishimizdagi natijalarni matematik statistik tahlil qilishda tadqiqotimizdagi tajriba va nazorat guruhlaridan tanlab olingan ikkita tanlamaning quyidagi statistik mezonlarini aniqladik.

Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichda tajriba avvalida va tajriba so'ngida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib a'lo, yaxshi, o'rtacha va past darajalar bo'yicha baholandi (2-jadval).

## 2-jadval

### Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishganlik darajasi bo'yicha tajriba sinov ishlarining tajriba avvalidagi(T.a.) va tajriba so'ngidagi(T.s.) umumlashgan natijalari

№	Baholash mezonlari	Guruhlar	Responde ntlar soni	Baholash mezonlari							
				A'lo		Yaxshi		O'rtacha		Past	
				T.a.	T.c.	T.a.	T.c.	T.a.	T.c.	T.a.	T.c.
1	Ona tili savodxonligi	Tajriba guruhi	491	45	174	129	225	236	55	81	37
		Nazorat guruhi	483	38	42	122	127	233	231	90	83
2	O'qilgan matnni tushunish darajasi	Tajriba guruhi	491	43	170	127	227	238	53	83	41
		Nazorat guruhi	483	40	46	126	125	235	233	82	79
O'rtachasi		Tajriba guruhi	491	44	172	128	226	237	54	82	39
		Nazorat guruhi	483	39	43	124	126	234	232	86	82

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo'yicha barcha mezonlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba sinov ishlarining yakuniy o'rtacha hisob kitobi amalga oshirildi.

Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo'yicha so'rovnomalar yuzasidan shu bobda berilgan statistik ma'lumotlarni matematik statistik tahlil qilish uchun umumlashgan dastlabki va yakuniy javoblari viloyatlar kesimida keltirilgan( 3-jadval).

### 3-jadval

**Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba sinov ishlarining tajriba avvalidagi(T.a.) va tajriba so‘ngidagi (T.s.) umumlashgan natijalari (viloyatlar kesimida)**

Tajriba o‘tkazilgan viloyatlar	Guruhlar	O‘quvchilar Soni	Baholash mezonlari							
			A‘lo		Yaxshi		O‘rtacha		Past	
			T.a.	T.c.	T.a.	T.c.	T.a.	T.c.	T.a.	T.c.
Namangan viloyati	Tajriba guruhi	128	12	46	33	61	62	14	22	7
	Nazorat guruhi	126	11	12	32	32	61	60	22	22
Andijon viloyati	Tajriba guruhi	123	11	44	30	57	58	12	24	10
	Nazorat guruhi	121	10	11	29	30	58	59	24	21
Fargona viloyati	Tajriba guruhi	122	11	42	34	55	59	13	18	12
	Nazorat guruhi	120	10	11	33	33	58	56	19	20
Qashqadayo viloyati	Tajriba guruhi	118	9	40	31	53	58	15	18	10
	Nazorat guruhi	116	8	9	30	31	57	57	21	19
Jami	Tajriba guruhi	491	44	172	128	226	237	54	82	39
	Nazorat guruhi	483	39	43	124	126	234	232	86	82

Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba sinov ishlarining yakunida statistik ko‘rsatkichlarning taqqoslandi( 4-jadvalga qarang):

### 4-jadval

**Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba sinov ishlarining yakuniy solishtirma jadvali**

Tajriba guruhi	Tadqiqot ob‘ektlari	A‘lo	Yaxshi	O‘rtacha	Past	Jami
Tajriba guruhi	Namangan viloyati	46	61	14	7	128
	Andijon viloyati	44	57	12	10	123
	Fargona viloyati	42	55	13	12	122
	Qashqadayo viloyati	40	53	15	10	118
	<b>Jami</b>	<b>172</b>	<b>226</b>	<b>54</b>	<b>39</b>	<b>491</b>

Nazorat guruhi	Tadqiqot ob'ektlari	A'lo	Yaxshi	O'rtacha	Past	Jami
	Namangan viloyati	12	32	60	22	126
	Andijon viloyati	11	30	59	21	121
	Fargona viloyati	11	33	56	20	120
	Qashqadayo viloyati	9	31	57	19	116
<b>Jami</b>	<b>43</b>	<b>126</b>	<b>232</b>	<b>82</b>	<b>483</b>	


Yuqoridagilarga asosan, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tajriba sinov natijalarining yakuniy tahlili son va foizlarda keltirildi( 5-jadval).

#### 5-jadval

#### Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tajriba sinov natijalarining yakuniy tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)			
		A'lo	Yaxshi	O'rtacha	Past
Tajriba guruhlar	491	172 35	226 46	54 11	39 8
Nazorat guruhlar	483	43 9	126 26	232 48	82 17

Tajriba sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'quvchilarning nazorat guruhi o'quvchilarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosagina tajriba sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta'kidlovchi tajriba sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichda tajriba boshida va tajriba yakunida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib a'lo, yaxshi, o'rtacha va past darajalar bo'yicha variantsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ladi. Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi.



### 3 -rasm. Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish diagrammasi

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi a'lo va yaxshi ko'rsatkichlar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda tajriba yakunida statistik ko'rsatkichlarning o'rta qiymati, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezon, Styudent mezon asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezon va ishonchli chetlanishlari quyidagi jadvalda aks ettirildi(6-jadval).

#### 6-jadval

### Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tajriba sinov natijalarining statistik ko'rsatkichlari

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$S_x^2$	$S_y^2$	$C_x$	$C_y$	$T_{x,y}$	$K$	$X_{n,m}^2$	$\Delta_x$	$\Delta_y$
4,08	3,27	0,7736	0,3971	0,97	0,88	16,53	972	231,82	0,08	0,06

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lumki,  $\bar{X}=4,08$ ;  $\bar{Y}=3,27$ ;  $\Delta_x=0,08$ ;  $\Delta_y=0,06$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{4,08 - 0,08}{3,27 + 0,06} = \frac{4,00}{3,33} \approx 1,20 > 1;$$

Bilish darajasini ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{oob} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (4,08 - 0,08) - (3,27 - 0,06) = 4,00 - 3,21 = 0,79 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligi bilan ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini

takomillashtirish bo'yicha tajriba guruhlaridagi o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan xulosalar tajriba sinov ishlari samarador (16,2 %ga) ekanligini va bizning ko'zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Demak, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish yaxshi natija berishi tajriba sinov ishlari natijalari orqali o'z isbotini topdi.

Olingan natijalardan, tajriba sinovlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish asosida joriy qilgan holda amaliyot jarayonlarini ishlab chiqarish, sinfda va sinfdan tashqarida tatbiq qilish (joriy qilish) va ularni ta'lim jarayonida qo'llash o'qubchilarning kasbiy tayyorgarlik sifati va samaradorligini oshirdi. Demak, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba sinov ishlari samarador ekanligini va ko'zlagan maqsadlarning tasdiqlanganini ko'rsatdi.

## XULOSA

Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi.

2. O'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida o'qish va matnni tushunishga o'rgatishda yosh davrlar asosiy rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish, ona tili savodxonligiga o'rgatish jarayonining pedagogik-psixologik asoslari, tashkiliy-metodik talablaridan yetarli darajada xabardor bo'lsalargina kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin.

3. O'quvchilarni xalqaro baholash dastur topshiriqlarini bajarishga o'rgatishda mazkur jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi metodik omillarni hisobga olish lozim.

4. Boshlang'ich sinfnings asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda yuqori sifatli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish va ona tili savodxonligiga o'rgatish bugungi kunda interaktiv tavsifga ega bo'lishi zarur.

5. O'quvchilar matnning tahlili to'g'riligini bilish uchun matn bo'yicha savollarga javob bera olishlari, savodxonlik darajasini oshirish, ma'lumot olishga yordam berish va o'qishni davom ettirish uchun tegishli darajadagi qo'shimcha o'qish uchun vazifa berish kerak.

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barcha aqliy jarayonlar faol rivojlanadi. Shu sababli o'qish samaradorligini oshirish jarayonini bosqichma-bosqich kuzatish va tuzatishlar kiritib borish lozim.

7. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida eng ko'p uchraydigan muammo o'quv motivatsiyasining pasayishidir. O'quvchilarda o'qishga qiziqishni oshirish

uchun har bir darsda maqbul ta'lim muhitini yaratish, interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

8. Barcha tadqiqot yo'nalishlari doirasidagi umumta'lim fanlari o'qituvchilarning maqsadli malakasini oshirish, PISA tadqiqotlari bilan tanishtirish, topshiriqlar mazmuni va tuzilishi haqida ma'lumot berish, ularni tahlil qilishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilishni taqozo etadi.

9. O'quvchilarni ona tili va o'qish, matnni tushunishga o'rgatish ko'nikmalariga ega bo'lishlari maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, mexanizmi va texnologiyalarining puxta asoslanganligiga bog'liq. Shu bois nazariy tahlil va amaliy o'rganishlar natijasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunishga o'rgatishning puxta asoslangan mexanizmi, metodikasi hamda texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

10. Darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalarning yo'qligi yoki kamligi sababli, o'quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida PISA tadqiqotlarida ularning natijalari past bo'lishi mumkin.

11. PISA topshiriqlarining berilishi va unga javob berishning o'zgachaligi ham o'quvchilarda ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Sinovning kompyuter asosida o'tkazilishi esa kompyuterda ishlash va ba'zi maxsus ilovalardan foydalanish ko'nikmalarini ham talab etadi. Ba'zi interaktiv topshiriqlarni bajarish oldindan bunday topshiriqlar bilan tanish bo'lish va ularda ishlash dasturidan foydalanish ko'nikmalarining shakllanganligiga ham bog'liq bo'ladi.

12. PIRLS tadqiqotida 4-sinf o'quvchilari uchun, PISA tadqiqotlariga fakultativ kurslarni 7-, 8- va 9- sinf o'quvchilari uchun haftasiga 2 soat hajmida tashkil qilish tavsiya etilishi, asosiy e'tiborni sinovdan o'tadigan 4-8-sinf o'quvchilariga qaratilishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. O'quvchilarning xalqaro PISA, PIRLS va boshqa dasturlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun maktablarda alohida to'garaklarini tashkil etish, bu to'garaklar maxsus tasdiqlangan ish rejalar asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;

2. Darsliklarga xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) uchun tanlangan topshiriqlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;

3. Xalqaro baholash dasturlari haqida barcha pedagoglar to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari uchun yaratilgan qo'llanmalar ta'lim muassasalariga yetarli darajada yetkazilishi lozim;

4. Xalqaro tadqiqotlarga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida asosiy e'tiborni alohida PISA va PIRLS topshiriqlarini bajarishga emas, balki o'xshash topshiriqlarni ham bajarishi uchun qo'shimcha topshiriqlar berib, o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish lozim;

5. Xalqaro baholash dasturlarini qo'llash orqali o'quvchilarning maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim;

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**АСКАРОВА МАНЗУРА АВАЗБЕКОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ  
В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ  
ГРАМОТНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ PISA И PIRLS)**

**13.00.02-теория и методика обучения и воспитания (родной язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации (DSc) по педагогическим наукам**

**Чирчик - 2024**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2023.3.DSc/Ped 620.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном педагогическом институте. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета ([www.cspu.uz](http://www.cspu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный консультант:** Ходжаев Бегзод Худойбердиевич  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Матчонов Сафо Муродович  
доктор педагогических наук, профессор

Хамроев Алижон Рузикулович  
доктор педагогических наук, профессор

Мавлонова Кларахон Махмудовна  
доктор педагогических наук, доцент

**Ведущая организация:** Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «27» 08 2024 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01. по присуждению ученых степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41; e-mail: [cspu\\_kengash@umail.uz](mailto:cspu_kengash@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрировано под № 338). Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41.

Автореферат диссертации разослан «13» 08 2024 года.  
(Протокол реестра № 13 от «13» 08 2024 года).



  
У. Н. Ходжамкулов  
председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.п.н. (DSc), доцент

  
Ф. Т. Раджабов  
научный секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
философии по географическим наукам  
(PhD), доцент

  
В. Б. Файзиев  
председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, д.п.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во всем мире актуальность проблемы образования была признана одной из важнейших задач, а в принятой международной концепции образования до 2030 года, признана главной движущей силой развития и важной деятельностью, ведущей к достижению целей устойчивого развития. Международные исследования и достигнутые результаты в оценке качества образования, проведенные в развитых странах США, Японии, Великобритании, Китае, Сингапуре, России и многих других, служат своеобразной методологической основой для реализации международных научных проектов по оценке качества образования, совершенствования системы адекватной оценки знаний, умений и навыков обучающихся, отвечающих современным требованиям. Также в новой международной системе мониторинга актуальность приобретает совершенствование системы, основанной на выявлении и сравнении познавательных способностей учащихся по родному языку и читательской грамотности в соответствии с международными программами оценки.

В мире признанной считается точка зрения о том, что обеспечение успешности обучения учащихся на основе проведения педагогических исследований будет осуществляться на основе международных оценочных программ. С другой стороны, задания программы международной оценки направлены на развитие знаний, навыков и компетенций, таких как способность учащихся применять полученные знания в реальных ситуациях, обеспечивать взаимную интеграцию междисциплинарных знаний, принимать решения, обосновывать свое мнение на основе усвоенной информации, сравнивать противоречия, целенаправленно вербализовать проблемы, оценивать факты. В связи с этим приобретает актуальность дальнейшее расширение педагогических и методических возможностей организации образовательного процесса, развивающего у учащихся уровень чтения и понимания прочитанного.

В нашей республике в последние годы уделяется большое внимание дальнейшему совершенствованию системы непрерывного образования, разработке и внедрению эффективных механизмов повышения уровня грамотности учащихся. Нормативными правовыми актами, касающимися образования, определены «приоритетные задачи по повышению качества и эффективности образования, воспитанию молодежи, обладающей способностями к творческому, логическому созерцанию, успешному межкультурному общению, созданию у нее необходимых условий для проявления интеллектуальных способностей и становления духовно гармоничной личностью»<sup>3</sup>. Это, опираясь на положительные результаты, достигнутые развитыми странами, требует популяризации передового опыта

---

<sup>3</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" // Национальная база данных законодательных актов, 08.10.2019.

в системе образования Республики, развития национальной системы оценки грамотности учащихся, разработки системы интерактивных заданий, направленных на оценку их практических навыков, а также методики развития грамотности чтения, родного языка.

Данная диссертационная работа, в определенной степени, служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: №ПФ-5538 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы управления народным образованием» от 5 сентября 2018 года, №ПФ-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года, №5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, №6108 «О мерах по развитию образовательно-воспитательной и научной сфер в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года, №ПФ-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Указы №ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и продвижению культуры чтения» от 1 сентября 2017 года, Постановление Кабинета Министров № 1059 «Об утверждении концепции непрерывного духовного воспитания и мерах по ее реализации» от 31 декабря 2019 года, № ПП-4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в области народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития» от 25 января 2021 года, а также в других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I.«Формирование и реализация системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>4</sup>.** Научные исследования, связанные с вопросами развития обучения на основе международных оценочных программ, проводятся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, включая Aichi University of Education (Япония), National Institute of technical Teachers training and Research (Индия), Princeton University (США), Singapore National University

---

<sup>4</sup> При написании этой части были использованы следующие источники: "Faculty of Education Student Exchange to Aichi University of Education, Japan". Yogyakarta State University. 2016-10-17. Retrieved 2019-02-20. Japan; X.Kappali.,NITTTTR Extension Center, Hyderabad is conducting a Professional Development Programme on "Induction Training Programme" for faculty, Industry Professionals, Research Scholars from all disciplines through Contact mode from 20.05.2024. Indiya.; E.Donahue. Princeton University Admissions. Future of Children Final Roll-out Event at Brookings.USA.February 8, 2021. Tan. J., Singapore methodology: learn less, learn more(2018). Educational reform in Singapore: From quantity to quality. Educational Research.7 (1), 5-15. Ministry of Education.(2008a). More support for school's "Teach less, learn more" initiatives, [Press Release]. Singapore; Bland J. Children's literature and learner empowerment: Children and teenagers in English language education, London: 2013;

(Сингапур); Belfield pedagogical university (Германия), National Advice on Pedagogical Technology (Англия), академия образования (Россия).

